

YOSHILAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#44 (16698)
2025-yil 5-noyabr,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan



Foto: Husniddin ATO

VILOYATDAGI ENG ZO'R YETAKCHI

➔ 2-bet



Bir paytlar e'tibordan chetda qolgan mahalla bugun o'ziga yarasha shukuh, bunyodkorlik ruhi bilan to'yinmoqda. Bu – Ohangaron tumanidagi Shodmalik mahallasi.

Mahallada yillar davomida qarovsiz yotgan futbol maydoni yoshlar yetakchisi Almaz O'rinbekov tashabbusi bilan qayta tiklandi. Homiylar ko'magida yoritkichlar o'rnatildi, maydon tartibga keltirildi va mahalla yoshlari foydalaniishi uchun topshirildi.

YANGI GLOBAL MULOQOT KONSEPSIYASI

Alisher SA'DULLAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Yoshlar
ishlari agentligi direktori, senator

➔ 2-bet

UNESCO

ning 43-sessiyasi so'nggi qirq yilda ilk bor Parijdagi bosh qarorgohidan tashqarida, tarixda ilk marta Markaziy Osiyoda, yana ham quvonarlisi, Samarqand shahrida o'tkazilmoqda.

Bu O'zbekistonning tinchlik diplomatiyasi, madaniy merosni tiklash yo'lidagi ulkan qadamlari, yoshlar, ilm-fan, ma'rifatga asoslangan siyosati, mintaqaviy xavfsizlik va integratsiyani ta'minlashga doir tashabbuslariga global ishonch va hurmatning ifodasidir.

2025-yil 30-oktabr kuni UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilish marosimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi. Prezidentimiz anjuman ishtirokchilarini qutlab, konferensiyaning global hamkorlikni mustahkamlashdagi ahamiyatiga to'xtalar ekan, "UNESConing boqiy an'ana va qadriyatlaridan kuch olayotgan "Samarqand ruhi" bizni umumiy taraqqiyot sari yanada birlashishga undaydi", deya ta'kidladi.



Esingizda bo'lsa, ilk bor 2022-yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitida tilga olingan "Samarqand ruhi" iborasi ayni paytda ko'plab xalqaro platformalarda, xususan, BMT va UNESCO doirasida faol qo'llanmoqda. Prezidentimiz ilgari surgan bu tushuncha zamirida o'zaro hurmat va ishonch, tenglik tamoyili, ochiq muloqot va madaniyatlararo hamkorlik, ko'p qutbli dunyo, tinchlik, bag'rikenglik va hamjihatlik, inson qadri va madaniy merosni ulug'lash kabi tamoyillar mujassam. Ya'ni bu jozibador ibora Yangi O'zbekistonning tinchlik yo'lidagi madaniy diplomatiyasining jahondagi o'ziga xos tantanasi ramziga aylanyapti. Shu ma'noda "Samarqand ruhi" geosiyosiy raqobat emas, insoniyatning umumiy manfaatlarini yo'lida muloqot qilish san'atidir.

Samarqand tarixdan tamaddunlar beshigi, Buyuk Ipak yo'lining chorrahasi, madaniy muloqotlar markazi bo'lganidek, UNESCO bugun ham O'zbekistonni mintaqada barqarorlik markazi, madaniyat va sivilizatsiyalar o'chog'i, global muloqot maydoni sifatida ko'rmoqda.

Ma'lumki, UNESCO ta'lim, ilm-fan, madaniyat va tinchlikni ulug'laydi. "Uchinchi Renessans" g'oyasining ramzi va global ma'rifat maskani sifatida tiklanayotgan Samarqand esa ta'lim va ilm-fan sohasida ming yillik an'analarga ega. Madaniyatlar chorrahasi, bag'rikenglik timsoli, insoniyat moddiy-madaniy merosini tiklashning eng yirik loyihalari hududi sanaladi. Shu bois shahar UNESCO qadriyatlarining ramzidir.

Sessiya doirasida jahon hamjamiyati va siyosatchilar bildiryotgan fikrlar ham bu yuksak e'tirofni tasdiqlaydi. Jumladan, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sadiir Japarov o'z qutlovida UNESCO sessiyasining Samarqandda o'tkazilishini O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va Markaziy Osiyoning global madaniy-ma'rifiy markaz sifatidagi o'sib borayotgan rolini tasdiqlovchi tarixiy voqea sifatida baholadi. U ushbu forum mintaqani ilm, ma'naviyat va madaniyatlarni bog'lovchi ko'priksifatida tanitishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi hamda O'zbekistonning tinchlik, o'zaro anglashuv va taraqqiyot g'oyalari ilgari surishda yetakchi davlatga aylanganini qayd etdi.

STARTAP – IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY OMILI

➔ 4-bet

Dunyoda startaplarga iqtisodiyotlarning o'sish manbasi sifatida qaral-yapti. Startaplar yangi texnologiyalarni joriy etadi, muammolarga noodati yechim topadi, bozorga yangi g'oyalarni olib kiradi. Dunyo miqyosida startaplar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida e'tirof etilgan. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, AQSh, Isroil, Janubiy Koreya va Estoniya kabi mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning muhim qismi startaplar faoliyati hisobiga yaratiladi. O'zbekiston sharoitida ham "startap madaniyati"ning rivojlanishi iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

BIR HUDUD BIR MAHSULOT



Shu vaqtgacha "Yoshlar uchun yer ajratish" tashabbusi doirasida 155,2 ming nafar yoshga jami 57,1 ming gektar yer maydoni ajratilgan.

- Yetishtirilgan hosil – **522 ming tonna**
- Olingan daromad – **1,9 trillion so'm**

TOP 100

➔ 3-bet

Yoshlar ishlari agentligi 2025-yilning III choragi yakunlari bo'yicha Respublika miqyosidagi eng faol va namunalilar yoshlar yetakchilari ro'yxatini e'lon qildi.

Eslatib o'tamiz, mamlakatimizdagi 9 mingdan oshiq mahallada yoshlar yetakchilari faoliyat yuritmoqda.

MAQSA DLARI BIR JAHON MIRJAHON



➔ 4-bet

Mirjahon Muhammadov Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab bitiruvchisi, kimyo fanidan xalqaro va mintaqaviy olimpiadalar g'olibi hamda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi.



Qizlar forumi

“SAMARQAND RUHI” — YANGI GLOBAL MULOQOT KONSEPSIYASI


Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



JAHON HAMJAMIYATNING YUKSAK E'TIROFI

UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'z miqyosi, ishtirokchilar tarkibi va kun tartibi bilan xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortmoqda. Sessiyada 190 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlardan 2 800 nafardan ziyod delegat ishtirok etyapti. Ular orasida Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich, Slovakiya Respublikasi Prezidenti Peter Pellegrini, UNESCO Bosh direktori Odri Azule kabi yuksak martabali shaxslar borligi forumning alohida siyosiy ahamiyatini belgilaydi. Turli davlatlarning vazirlari, xalqaro tashkilot rahbarlari, akademik doiralar va jamoatchilik vakillarining keng ishtiroki sessiyaning olamshumul muloqot maydoni sifatidagi nufuzini yanada oshiradi.

Konferensiyada ta'lim, ilmfan, madaniyat, yoshlar siyosati, axborot xavfsizligi, madaniy merosni asrash, sun'iy intellekt va ekologiya masalalari ustuvor yo'nalish sifatida muhokama qilinmoqda. O'zbekiston tomonidan taklif etilgan 20 dan ziyod qo'shimcha tadbirlar ham forumni mazmunan boyitdi.



Jumladan, ta'limdagi inklyuzivlik, gender tengligi, ilmiy yondashuv va innovatsion taraqqiyot, global merosni saqlash, sun'iy intellektning xavfsiz rivojii, yoshlar siyosatini kuchaytirish kabi yo'nalishlarda amaliy kelishuvlar va kelajak tashabbuslari belgilandi. Bu muloqotlar nafaqat UNESCO, balki butun insoniyat uchun muhim istiqbolli yo'nalishlarni belgilab berdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqida global jarayonlarga nisbatan aniq qarashlar va amaliy takliflar ilgari surildi. Zamonaviy xalqaro kun tartibining eng muhim masalalari: adolatli global tartibot, madaniy xilma-xillik, inson qadri, yoshlar ta'limi va texnologik taraqqiyotga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, nutqda Yangi O'zbekiston taraqqiyot modeli ma'rifatga tayanishi, ta'limni bosh islohotlar markaziga qo'yish, yoshlarni tarbiyalash, ilmfanni qo'llab-quvvatlash istiqbolli kelajakning garovi sifatida ko'rsatildi. Qolaversa, O'zbekis-

ton o'z tarixiy merosini tiklagina qolmay, uni butun insoniyatga xizmat qildirish yo'lidan bormoqda. Mamlakatimiz tashabbusi bilan "Xiva jarayoni: Markaziy Osiyoda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish" rezolyutsiyasi (2021-yil), "Kichik yoshdagi bolalarga g'amxo'rlik qilish va ta'lim berish bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi" hamda "Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kuni munosabati bilan Toshkent deklaratsiyasi" (2023-yil) kabi muhim hujjatlar qabul qilangani buning amaliy isbotidir.

Shu bilan birga, Prezidentimiz bir nechta yo'nalishdagi muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Misol uchun, UNESCOning alohida ehtiyojli bolalar uchun Inklyuziv ta'limni rivojlantirish platformasini joriy etish taklif etildi. O'zbekiston ta'lim sohasida o'zaro bilim va tajriba almashish uchun xalqaro muloqot formatini yaratish maqsadida Jahon professional ta'lim sammitini o'tkazish rejasini, yurtimizda UNESCO ishtirokida "Sun'iy intellekt – maktab" namunaviy loyihasini amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

Bundan tashqari, insoniyatning bebaho xazinasini bo'lgan jahon nomoddiy madaniy merosini saqlab qolish, UNESCOning "Jahon xotirasi" dasturini rivojlantirish kabi maqsadlar uchun tashkilot tuzilmasiga kiradigan Raqamli meros bo'yicha xalqaro institutini, a'zo davlatlarning eng ilg'or tajriba va amaliyoti-

ni o'rganish, bilimlar almashish maqsadida Xotin-qizlar yetakchiligi bo'yicha UNESCO akademiyasini, Samarqandda barcha qit'alarining mashhur tadqiqotchilari, san'at namoyandalari, pedagog va ixtirochi xotin-qizlarning Ta'lim, madaniyat va fan sohasidagi global forumini tashkil etish taklif qilindi.

Atrof-muhitga mas'uliyat bilan yondashayotgan, "yashil" dasturlarni muvaffaqiyatli tatbiq etayotgan shaharlarni alohida e'tirof etish va rag'batlantirish bo'yicha "UNESCOning Ekologik poytaxti" hamda tashkilot Ijroiya Kengashining "Globalashuv va iqlim o'zgarishlari sharoitida madaniy merosni asrab-avaylash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyasini ishlab chiqish bo'yicha bildirilgan global tashabbuslar ham tahsinga loyiqdir.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasi, kelajagi bilan bog'liq masalalar ham davlatimiz rahbarining e'tiboridan chetda qolmadi. Ma'lumotlarni tahliliy idrok etish, yoshlarni manipulyatsiyadan himoya qilish, axborot shaffofligini ta'minlash maqsadida UNESCOning Mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli strategiyasini ishlab chiqish, raqamli transformatsiya muhitida dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning



eng yaxshi ijodiy ishlari, multimedia g'oyalarini o'zaro almashish uchun Bolalar madaniy kontenti xalqaro festivalini o'tkazish g'oyalari o'rtaga tashlandi.

Sessiya doirasida tashkil etilgan madaniy dasturlar, tarixiy obidalar bo'ylab sayohatlar, ilmiy-ma'rifiy uchrashuv va badiiy konsertlar anjumanga o'ziga xos ruh bag'ishlamoqda. O'zbek milliy san'ati, maqom, mumtoz kuy-qo'shiqlar, shashmaqom, xalq amaliy san'ati – bular nafaqat milliy madaniyat, balki umuminsoniy boyluk sifatida taqdim etilmoqda. Konsert dasturlari ishtirokchilarga xalqlar do'stligi va totuvlik muhiti, turli sivilizatsiyalar uyg'unligini, O'zbekistonning ochiq, bag'rikeng va mehmondo'st qiyofasini yanada chuqur his ettirdi.

Bunday madaniy muhit UNESCO sessiyasining siyosiy emas, balki insoniy, ma'naviy va ma'rifiy mohiyatini yorqin ochib berdi.

BUNYODKOR AVLOD FORUMI

Shu o'rinda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyaning ajralmas va eng muhim bosqichlaridan bo'lgan 14-UNESCO Yoshlar Forumiga to'xtalsak. Forum "Iqlim harakati va uning ijtimoiy ta'siri, ayniqsa yoshlar uchun" mavzusiga bag'ishlanib,



dunyoning 130 dan ortiq mamlakatidan kelgan yosh yetakchilarni bir joyga jamladi. Bu global masalalar yechimida yoshlar ovozi tobora muhim o'rinni egallayotganining yaqqol ifodasidir.

Forum, avvalambor, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, ta'lim va teng imkoniyatlar masalalari bo'yicha yoshlar pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qildi. Bildirilgan takliflar UNESCOning ommaviy siyosiy qarorlarida o'z aksini topishi kutilmoqda. Demak, Samarqand forumi xalqaro yoshlar diplomatiyasi uchun yangi bosqich, yangi maktabdir.

O'zbekistonda yoshlar bilan ishlashning milliy modelini jahon hamjamiyati yuqori baholamoqda. Ta'lim, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bandlik, tadbirkorlikni rivojlantirish, AT, startaplar, gender tengligi, yoshlar diplomatiyasi – bularning barchasi mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Qolaversa, O'zbekiston – yoshlar mamlakati: aholining deyarli 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yuz minglab yoshlar mamlakatning eng katta boyligi – qimmatli inson kapitali ekani xalqaro ekspertlar tomonidan qayd etilmoqda.

Shuning uchun ham forum kun tartibidagi masalalar O'zbekiston tajribasi va maqsadlariga uyg'un. Mamlakatimizning yoshlarga oid davlat siyosati butun dunyoga namuna bo'lib, ta'lim-tarbiya olish, tadbirkorlikni

rivojlantirish va bandlik sohalarida barcha yoshlarga teng imkoniyatlar yaratish borasidagi mamlazilli islohotlar jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. O'zbekiston yoshlari xalqaro maydonda ta'sirchan ovozga ega bo'layotgani, iqlim siyosati, innovatsiyalar, ilm-fan va diplomatiyada munosib o'rinni egallayotgani bejiz emas.

Yoshlar forumi doirasida o'tkazilgan "Bag'rikenglik kemasi" xalqaro konsert dasturi, "Bunyodkor avlod" ("Generation of Action"), "Youth Recommendations and Calls to Action", "Project Cafe" kabi sessiya va muloqotlar yoshlarning global tashabbuslarda ishtirokini kengaytirdi, ekologik ong va ilmiy fikr yuritish madaniyatini yuksaltirdi hamda O'zbekistonni potensial yoshlar intellektual markazi sifatida namoyon etdi. Forum yakunida ishlab chiqilgan Yoshlar tavsiyalari paketi UNESCO sessiyasiga taqdim etiladi. Bu jarayon yoshlar faqat kelajakning emas, bugunning ham kuchli siyosiy va intellektual subyekti ekanini ko'rsatadi.

—

Samarqanddagi tarixiy sessiya ma'rifiy va global hamjihatlik tuyg'usini mustahkamlaydi. Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda O'zbekiston taklif qilayotgan "Samarqand ruhi" g'oyasi jahonda tinchlik, muloqot, madaniy bag'rikenglik, ilm va tafakkurga tayanish tamoyillariga asoslangan yangi xalqaro paradigma sifatida shakllanmoqda.

Yoshlar yetakchisi

Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

VILOYATDAGI

eng 20'Y YETAKCHI



Almaz
O'RINBEKOV
Ohangaron tumanidagi Shodmalik mahallasi yoshlar yetakchisi

– Mahalla ahli, asosan yoshlar ko'magida mahallamizga ramziy darvoza qurdik, qarovsiz yotgan futbol maydonini qayta tikladik. Endi yoshlar kechki paytlar ham yoritkichlar ostida sport bilan shug'ullanmoqda. Menimcha, hech bir ish ko'z-ko'z qilish uchun emas, natija uchun bo'lishi kerak. Chunki haqiqiy tashabbus qog'ozda emas, amalda namoyon bo'ladi, – deydi Almaz O'rinbekov.

"Yashil" toifa: 428 nafar	"Sariq" toifa: 241 nafar	"Qizil" toifa: 3 nafar

MAKTAB – YOSHLAR BILAN ISHLASHDAGI ENG MUHIM TAYANCH MASKAN.

“OG’IR” TOIFA BILAN ISHLASH

2025-yil boshida Shodmalikda xatlov natijasida jami 19 nafar "og'ir" toifaga mansub va ishsiz yoshlar aniqlangan. Har bir yosh bilan individual ishlar olib borildi, sharoitlari o'rganildi, qiziqishi aniqlanib, bosqichma-bosqich bandlik masalalari hal qilindi. Bugungi kunga kelib ularning barchasi doimiy ishga joylashtirildi.

Sohibjon Mehridinov ish topishda qiynalgan. Bugun esa u Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining Angren ko'mir konlari obyektlarida yong'in xavfsizligi bo'yicha yetakchi mutaxassis. Oylik daromadi 7 million so'mdan ortiq.

2 nafar probatsiya nazoratidagi, 3 nafar profilaktik hisobdagi yigit mudatidan oldin nazoratdan chiqarilib, qonuniy mehnat faoliyatiga yo'naltirildi. Muntazam dars qoldiruvchi 1 nafar o'quvchi maktab hamkorligida darsga qaytarildi, sritbol to'garagiga ham jalb qilindi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj 4 nafar yigit-qizning muammosi "Yoshlar daftari" orqali hal etildi. 3 nafarining kontrakt pullari, birining davolanish xarajatlari qoplandi.

MIGRANTLARGA KO'MAK

Migratsiyadagi 25 nafar yoshdan 15 nafari yetakchi tashabbusi bilan ishlash ruxsatnomasi oldi, ya'ni ular faoliyatini rasmiylashtirildi, huquqiy himoyasi ta'minlandi.

Nurken Ahmadaliyev ham noaniq huquqiy maqomga ega edi. Bugun esa barqaror mehnat qilish imkoniyatiga ega. U hozir Qozog'istonning Ostona shahrida yo'l qurilishida qonuniy ishlayapti. Nurkenning oylik daromadi 1000 dollar atrofida.

– Ilgari ruxsatnomasiz, norasmiy mehnat qilganim bois hadik bilan yashardim, – deydi Nurken Ahmadaliyev. – Rasmiy ruxsatnoma tufayli endi bemalol, hadiksiz mehnat qilyapman. Ish joyimda mehnat sharoitlari yaxshilangan.



“IBRAT FARZANDLARI”
LOYIHASIDA 170 NAFAR
YOSH RO'YXATDAN O'TIB,
80 NAFARI SERTIFIKAT
OLGAN.

80 TA SERTIFIKAT

Bu yil mahalla yoshlari "Besh tashabbus olimpiadasi"ning tuman bosqichida armrestling bo'yicha erkaklar o'rtasida 1-o'rin, shaxmat bo'yicha hududiy bosqichda 3-o'rinni qo'lga kiritdi. 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Almaz O'rinbekov viloyatning eng faol yoshlar yetakchisi sifatida e'tirof etildi.

Mahallada "Ibrat farzandlari", "Mutolaa", "Ustoz AI", "UzChess" va "Qizlar akademiyasi" loyihalari muntazam faoliyat yuritmoqda. Ushbu loyihalar targ'iboti maktab bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Yoshlar qamrovi ham sezilarli oshgan. Masalan, "Ibrat farzandlari" loyihasida 170 nafar yosh ro'yxatdan o'tib, 80 nafari sertifikat olgan. "UzChess"da 120 nafar yosh 3 832 ta elektron, audio va video shaklidagi shaxmat darslarini bepul o'rganyapti. "Qizlar akademiyasi"da ta'lim olayotgan qizlar 120 nafarga yetdi.

Mahalladagi xorijiy tillar to'garagiga 30 nafar, futbol to'garagiga 35 nafar, voleybolga 25 nafar yosh jalb qilingan. Mashg'ulotlar mahallaning o'zida, hech qanday qo'shimcha xarajatsiz, yetakchi va homiylar yordamida tashkil etilgan.

ELGA ESH BO'LIB

– Maktab bilan hamkorligimiz natijasida loyihalarga yoshlar qamrovini oshirishga erishdik, – deydi Almaz O'rinbekov. – Avvallari ayrim yoshlar mahalla hayotiga befarq bo'lib, o'zini jamiyadan chetda his qilardi. Bugun esa ular turli loyihalar, to'garaklar, sport musobaqalarida qatnashmoqda. Bizning maqsadimiz har bir yoshni o'z kuchiga ishonadigan, maqsadli inson sifatida shakllantirishdir.

Yetakchining fikricha, maktab – yoshlar bilan ishlashdagi eng muhim tayanch maskan. O'qituvchilar, sinf rahbarlari, psixologlar bilan hamkorlikda jinoyatchilikka moyillik yoki agressiv xulq-atvor belgilari erta aniqlanyapti. Har bir o'quvchining holati, qiziqishi, oilaviy sharoiti o'rganilib, u bilan individual ish olib boriladi. Iqtidorli o'quvchilar muntazam rag'batlantirilib, ular orqali namuna shakllantirilmoqda.



SHODMALIK
MAHALLASI BALANSI:

Aholi:
3150 nafar;
Yoshlar:
669 nafar;
Ayol-qizlar:
284 nafar.



KELGUSI MAQSADLAR

Yetakchi bu yutuqlarni katta yo'lning boshlanishi deb biladi. Uning fikricha, har bir natija ortida yangi mas'uliyat, yangi maqsadlar yotadi. Qahramonimizning asosiy maqsadlaridan biri – "Har bir yosh – bir loyiha" tamoyilini joriy etish. Bu tizim orqali har bir faol yosh o'z g'oyasini ilgari surib, amaliy loyihaga aylantiradi. Yetakchi yoshlarning tashabbuslarini rag'batlantirish uchun homiylik mablag'lari hisobidan "Yoshlar jamg'armasi"ni tashkil etish tashabbusini ilgari surmoqda.

Kelgusi yilda mahallada yoshlarning kichik biznes, AT, dizayn, marketing, xizmat ko'rsatish kabi sohalardagi g'oyalarini rivojlantirish uchun "Yoshlar startap markazi" tashkil etilishi rejalashtirilayapti. "Mahallada ishlab, mahallaga foyda" tamoyili asosida har bir yosh o'z hududida kichik ishlab chiqarish yoki xizmat faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



QIZBEKISTON YOSHLAR
YETAKCHILARINI
QO'LLAB-QUVVATLASH
MARKAZI

TOP-100

YOSHLAR YETAKCHILARI

 MUXAYYO Kamilova Tortko' tumani "Galaba" MFY	 MAETBAY Kalmurzaev Taxtak'pir tumani "Qarateren" MFY	 BERDAQ Nuripesov Xo'jayli tumani "Tasko'pir" MFY	 SALAMAT Aytbaev Qonko' tumani "Oltinko' OFY	 AZIZBEK Torsambetov Bo'z'otov tumani "Erkindarya" OFY	 BAXRAM Turinbaev Chimboy tumani "Baxitir" OFY	 ERGASH Jumaniyazov Taxiatosh tumani "Keneges" OFY	 NILUFAR Xolqova Qo'rg'ontepa tumani "Dehqonchek" MFY	 NOZIMJON Sobitov Andijon tumani "Dehqon" MFY	 MUSLIMBEK Xudoyberdiyev Paxtaobod tumani "Qo'qonshloq" MFY
 JAMSHIDBEK Isroilov Andijon shahri "Sog'lon avlod" MFY	 OMADJON Vositjonov Xonobod shahri "Xonobod" MFY	 SHOXABBOSBEK Akbaraliyev Bulqobosh tumani "Farovon" MFY	 NURALI Abdullajonov Andijon shahri "Bog'i Eram" MFY	 SHOXJAXON Xasanov Jalqaduiq tumani "Xamzaobod" MFY	 XUSNIDIN Xakimov Romitan tumani "Kengash" MFY	 MIRSHOD Ramazonov Romitan tumani "Decha" MFY	 ALISHER Xidirov Qorako' tumani "Arna" MFY	 XURSHID Baxriddinov Jondor tumani "Ushot" MFY	 ELYOR Faxmatov Kogon tumani "Nurafshon" MFY
 MIRFAYZ Muxammadov Buxoro tumani "Rabotqilmoq" MFY	 FARXOD Narzullayev Buxoro shahri "Shayxozon" MFY	 PAHLAVONJON Norov Vobkent tumani "Ko'katta" MFY	 AZIMJON To'ychiyev Forish tumani "Xonband" MFY	 DILAFROZ Suvankulova Jizzax shahri "Xalqobod" MFY	 JAVOHIR Norqoziyev Zomin tumani "Chorvador" MFY	 ABBOS Isoqulov Paxtakor tumani "Samangard" MFY	 DILXUSH Kenjayev Qashli shahri "Qalibek Qo'rg'onchasi" MFY	 OZODBEK Gadaymurodov Qamashi tumani "Bunyodkor" MFY	 SHAHBOZ Shukurov Shahrisabz shahri "Kamolot" MFY
 ASLIDDIN Abdusolomov Muborak tumani "Bobur" MFY	 ALISHERJON Suyarov Mirshikor tumani "Obod" MFY	 ASILBEK Niyozberdiyev Ko'kdala tumani "Hardun" MFY	 JASURBEK Ibdullayev Dehqonobod tumani "Zaqiy" MFY	 GULHAYO Xamraqlilova Guzor tumani "Tinchlik" MFY	 ABDULLA Sayfullayev Navoiy shahri "Mavritat" MFY	 YERNUR Maulenov Korimex tumani "Birlik" MFY	 DAVLATJON Davronov Qiziltepa tumani "Toshnaxchi" MFY	 JONIBEK Rasulov Nurota tumani "Ibn Sino" MFY	 RAVSHANBEK Fozilov Kosonsoy tumani "Ittifoq" MFY
 OZODBEK Jo'rayev Namangan tumani "Kaykovus" MFY	 XUSNIDIN Mamatkamilov Norin tumani "Qorateren" MFY	 MUXRIDDIN To'xtaboyev Pop tumani "Chortiq" MFY	 JALOLDIN Maxammadjonov To'raqo'rg'on tumani "Zarbdor" MFY	 MAFTUNA Qurbonova Uchqo'rg'on tumani "Uchyo'g'ochi" MFY	 DONYORBEK Umurzayev Chortiq tumani "Xayit" MFY	 JONIBEK Isaboyev Yangiyo'rg'on tumani "Birlik" MFY	 SHOHRUZIY Yusupova Narpay tumani "Toshko'priq" MFY	 JAVLON Absamatov Jomboy tumani "Zarafshon" MFY	 ORZUMUROD Uralov Payariq tumani "Javshar ota" MFY
 RUSTAM Xayrullayev Kattag'org'on tumani "Gozal" MFY	 SINDOR Salomov Bulung'ur tumani "Merganchasi" MFY	 JAVLON Abduraimov Bulung'ur tumani "Mingchirasi" MFY	 ISLOMBEK Abdurayimov Pastdarg'on tumani "Mang'itobod" MFY	 SARDOR Ismatov Termez shahri "Kamardon" MFY	 AHROR Karimov Samangard shahri "Bog'ishamo" MFY	 NURLIBEK Niyatqobilov Jahlon tumani "Yangiyo'rg'on" MFY	 MANSUR Shodiyev Termez tumani "Ko'rkam diyor" MFY	 SHOXSANAM Yusupova Shirin shahri "Vatanparvar" MFY	 ZAFAR Abdurazakov Xovos tumani "Bo'ston" MFY
 SHERXAN Urazaliyev Gulistan shahri "Baxt" MFY	 MUSLIMBEK Normuminov Shorchi tumani "Exgul" MFY	 OTABEK Samatov Boysun tumani "Foyg'ash" MFY	 JAVOXIR Do'snaye Shorobod tumani "Boysqishloq" MFY	 MUSURMON Pardayev Termez shahri "Tuproqo'rg'on" MFY	 ILHOM Rasulov Jaqo'rg'on tumani "Esqishloq" MFY	 TEMURBEK Xolmurodov Denov tumani "Oxton" MFY	 NODIR Normurodov Termez tumani "Sabzpo'ya" MFY	 ABRORJON Safaraliyev Ohangaron tumani "Nurobod" MFY	 ODILJON Abduraximov Peskent tumani "Mayibod" MFY
 MEXROVAR Mirmaxmadov Bo'ka tumani "Navobod" MFY	 UMIDA Xo'janazarova Toshkent tumani "Itiqob" MFY	 ANVAR Alishov Oqqo'rg'on tumani "Usta normal" MFY	 NAZOKAT Umarova Olmaliq shahri "Mahmudxo'ja Behbudiy" MFY	 SERIKBAY Tulegenov Quyil Chirchiq tumani "Paxtach" MFY	 SHERZOD Xamitov Qiray tumani "Botanika" MFY	 NARGIZA Rustamova Yangiyo'rg'on tumani "Farovon" MFY	 LOLAXON Uktambayeva Chinoz tumani "Chorvador" MFY	 AZIZBEK Qucharov Quva tumani "Quva" MFY	 DILSHODJON Mirzakarimov Quvasoy shahri "Yuqori moyan" MFY
 MAMURJON Mamajonov Qashg'ar tumani "Qiyq" MFY	 SHOXBOZ Amiraliyev So'x tumani "Lenbur" MFY	 DAVRONBEK Mamajonov Uchko'priq tumani "So'yboy" MFY	 IXTIYOR Yuldashev Bovayda tumani "Ko'jabod" MFY	 SHAHBOZ Erkaboyev Farg'ona shahri "A.Qodiriy" MFY	 KOZIMJON Xolmatov Yozovon tumani "Soyyon" MFY	 AVAXXON Olimov Qo'qon shahri "Noib ko'priq" MFY	 ABBOS Sobitov Urganch shahri "Mavritat" MFY	 TEMURBEK Mayiliyev Qashliq tumani "Taraqoyot" MFY	 KAMOLADDIN Egamov Yangiyo'rg'on tumani "Jaloli" MFY
 MUHIDDIN Teshaboyev Nizozg'ar tumani "Gulzor" MFY	 IMOMADDIN Ismoilov Xonja tumani "Bunyodkor" MFY	 OTABEK Karimov Urganch tumani "Oq yop" MFY	 SHUXRAT Maksudov Yeshobod tumani "Yusozlar" MFY	 XABIBULLO Razzoqov Mirzo Ulu'zbek tumani "Jisorat" MFY	 G'YIOSIDDIN Avaxonov Yunusobod tumani "Nurmakon" MFY	 SARDORBEK Nishonov Yangiyo'rg'on tumani "Yangi ulmid" MFY	 JAMSHID Rixsiyev Shahy'ontepa tumani "Yangi Beltepa" MFY	 YULDUZ Gaybullayeva Olmaliq tumani "Shodiyona" MFY	 ULUG'BEK Nurmurodov Chilonzor tumani "Sharq" MFY

STARTAP

Startap inglizcha “startup” soʻzidan olingan boʻlib, “ishga tushirish” yoki “boshlanish” maʼnosini bildiradi. Iqtisodiy mazmunda bu tushuncha yangi, oʻsish salohiyatiga ega va muammoni noodatiy usulda hal etishga qaratilgan biznes gʻoyani anglatadi. Startap odatda gʻoyadan boshlanadi. Unda tayyor bozor yoki barqaror mijozlar guruhi boʻlmaydi. Gʻoyaning oʻzi asosiy kuch hisoblanadi.

Startapni oddiy biznesdan ajratib turuvchi bir nechta belgilar bor. **Birinchidan**, startap doim yangilikka intiladi. U mavjud bozorni takrorlamaydi – yangi qiymat yaratadi. Masalan, anʼanaviy taksi xizmatlari allaqachon mavjud boʻlgani holda “Uber” oʻz tuzilmasi bilan butun dunyoda taksichilik sohani oʻzgartirdi.

Ikkinchidan, startap tez oʻsishga moʻljallangan va qisqa vaqt ichida bozorga chiqishga harakat qiladi. Shu sababli startaplar odatda texnologiyaga asoslanadi. Dasturiy mahsulot, onlayn platforma yoki mobil ilova – bular tez oʻsish imkonini beradi.

Uchinchidan, startap tavakkalga asoslanadi. Shu bois startap asoschilari xatodan qoʻrqmaydi, sinab koʻradi, natijaga qarab yoʻnalishni oʻzgartiradi. Bu jarayon “pivot” deb ataladi.

Yoshlar ishlari agentligi Strategik rejalashtirish, istiqbolli loyihalar va metodik taʼminlash boʻlimi boshligʻi Abdulaziz Suyarovning aytishicha, yoshlar gʻoyalarini ilmiy asoslay olsa, yaxshi daromad topadi va mamlakat rivojiga hissa qoʻshadi:

– *Dunyoda iqtisodiy oʻsishning eng faol va tez rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biri – startaplar. Endi katta zavod yoki fabrika qurish emas, balki kichik jamoaning bir gʻoya asosida global bozorda oʻz oʻrnini topishi zamonaviy iqtisodiyotning yangi modeli sifatida qaralmoqda. AQSh, Singapur, Janubiy Koreya, Isroil yoki Estoniya tajribasi shuni koʻrsatadi-ki, har bir muvaffaqiyatli startap ortida ilmiy yondashuv, tahlil va jamoaviy mehnat turadi. Silikon vodiysidagi startap ekotizimi va yirik kompaniyalar tajribasidan koʻrganlarim asosida ayta olaman: startap faqat biznes emas, fikrlash madaniyati ham. Unda tezkor sinov, xato qilishdan qoʻrqmaslik va bozordagi talabni toʻgʻri anglay olish asosiy qoidadir. Agar yoshlar oʻz gʻoyalarini ilmiy yondashuv bilan asoslay olsa, daromad topadi, mamlakatning innovatsion rivojiga ham hissa qoʻshadi.*

Har bir muvaffaqiyatli startap yangi soha yaratishi yoki mavjud bozorlarni tubdan oʻzgartirishi mumkin. Bu jarayon iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, raqobatni oshiradi va resurslardan samaraliroq foydalalanishga undaydi.

Startaplarning eng muhim foydasi ish oʻrinlari yaratishda koʻrinadi. Masalan, AQShda 2023-yil maʼlumotlariga koʻra, jami ish oʻrinlarining 20 foizi yangi startaplar hissasiga toʻgʻri kelgan. Kichik jamoalardan boshlangan loyihalar keyinchalik yirik kompaniyalarga aylangan.

“

STARTAP INGLIZCHA “STARTUP” SOʻZIDAN OLINGAN BOʻLIB, “ISHGA TUSHIRISH” YOKI “BOSHLANISH” MAʼNOSINI BILDIRADI. IQTISODIY MAZMUNDA BU TUSHUNCHA YANGI, OʻSISH SALOHİYATIGA EGA VA MUAMMONI NOODATIY USULDA HAL ETISHGA QARATILGAN BIZNES GʻOYANI ANGLATADI. STARTAP ODATDA GʻOYADAN BOSHLANADI. UNDA TAYYOR BOZOR YOKI BARQAROR MIJOZLAR GURUHI BOʻLMAYDI. GʻOYANING OʻZI ASOSIY KUCH HISOBLANADI.

Startaplarning iqtisodiyotdagi oʻrni xalqaro tajribada yaqqol namoyon boʻlgan. AQShdagi “Silicon Valley” startap ekotizimi butun dunyoga mashhur. Bu hududda yuz minglab ish oʻrni yaratilgan, minglab kompaniyalar rivojlangan. Isroil “startaplar mamlakati” deb ataladi. Chunki bu davlatda har 1 million aholiga 1 400 dan ortiq startap toʻgʻri keladi. Janubiy Koreyada esa davlat startaplarni milliy innovatsiya strategiyasining markaziga aylantirgan. Natijada yangi kompaniyalar mamlakat eksportida muhim ulushni egallagan.

Startaplar investitsiyalar oqimini ham kuchaytiradi. Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qiladi, ichki kapital bozorini rivojlantiradi. Investorlar tavakkal qilishga arziydigan gʻoyalarga eʼtibor qaratadi. Shu yoʻl bilan startaplar mamlakat iqtisodiyotini tashqi bozorlarga bogʻlash, eksportni koʻpaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

OʻZBEKISTONDA HAM STARTAPLAR BORMI?

Oʻzbekistonda startap muhiti soʻnggi yillarda tez surʼatda shakllanmoqda. Bu jarayon asosan uch omil tufayli kuchaygan: davlat tomonidan innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash, mahalliy inkubator va akselelatorlarning faoliyati hamda yangi texnologik xizmatlarga talabning oshishi.

2019-yilda Prezident farmoni bilan **IT Park Uzbekistan** tashkil etilgan edi. Uning asosiy vazifasi yoshlarning texnologik gʻoyalarini

IQTISODIY OʻSISHNING ASOSIY OMILI



“

MUVAFFAQIYATLI STARTAPLAR BIR NECHTA OMILGA TAYANADI: TOʻGʻRI JAMOA, MENTORLIK, SINOV VA TEZKOR MOSLASHUV QOBILIYATI.

Yoshlar oʻrtasida texnologik bilimni oshirish maqsadida **“One Million Uzbek Coders”** loyihasi, **“Yoshlar Akademiyasi”** dasturlari yoʻlga qoʻyildi. Bu loyihalar oʻquvchilar, talabalar va yangi gʻoya egalari uchun dasturlash, biznes reja tuzish va mahsulotni bozorga olib chiqish koʻnikmalarini oʻrgatadi.

Natijada soʻnggi yillarda mamlakatda yuzlab startaplar paydo boʻldi. Ularning aksariyati axborot texnologiyalari, onlayn xizmatlar, elektron savdo, tibbiyot va taʼlim yoʻnalishlarida ishlamoqda. Abdulaziz Suyarovga koʻra, endilikda startap gʻoyasiga Oʻzbekistonda faqat texnik loyiha emas, balki iqtisodiy oʻsishning yangi yoʻnalishi sifatida qaralayapti.

Yoshlar oʻrtasida texnologik bilimni oshirish maqsadida **“One Million Uzbek Coders”** loyihasi, **“Yoshlar Akademiyasi”** dasturlari yoʻlga qoʻyildi. Bu loyihalar oʻquvchilar, talabalar va yangi gʻoya egalari uchun dasturlash, biznes reja tuzish va mahsulotni bozorga olib chiqish koʻnikmalarini oʻrgatadi.

Natijada soʻnggi yillarda mamlakatda yuzlab startaplar paydo boʻldi. Ularning aksariyati axborot texnologiyalari, onlayn xizmatlar, elektron savdo, tibbiyot va taʼlim yoʻnalishlarida ishlamoqda. Abdulaziz Suyarovga koʻra, endilikda startap gʻoyasiga Oʻzbekistonda faqat texnik loyiha emas, balki iqtisodiy oʻsishning yangi yoʻnalishi sifatida qaralayapti.

Shahobiddin LUQMON tayyorladi.

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



– Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda startaplar ekotizimi shakllanib, davlat darajasida yoshlar tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash tizimi yoʻlga qoʻyildi. Yoshlar ishlari agentligi startaplarining ahamiyatini anglagan holda ekotizimni rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 100 million AQSh dollari miqdoridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamgʻarmasi, 10 million dollarlik venchur jamgʻarmasi, yoshlar startaplari uchun oromgohlar, hakeaton va ideatonlar, Uz-Combina-tor intensiv inkubatori dasturlari shular jumlasidan, – deydi Abdulaziz Suyarov. – Agentlik loyihalari doirasida eng iqtidorli yoshlar va startap jamoalari AQShning Silikon vodiysiga yuborilib, xalqaro tajriba orttirish va global innovatsion muhitni oʻrganish imkoniyatiga ega boʻlmoqda.

Mutaxassis startap boshlashda yoʻl qoʻyladigan xatolar, nimalarga eʼtibor qaratish, qaysi jihatlar muhim ekan haqida ham maʼlumot berdi:

– Koʻp yoshlar katta ishtiyoq bilan ishini boshlaydi, lekin sohani yetarlicha tadqiq etmaydi yoki raqobatni tahlil qilmaydi. Qonunchilikdan bexabarlik tufayli ayrim hollarda gʻoyalar huquqiy himoyalangan boʻladi. Bundan tashqari, munosib jamoa va ishonch ham juda muhim. Ayrim yoshlar kuchli gʻoyalarini bozor muhiti-ga tayyorlashda adashadi. Ilk qadam muammolari aniqlash va mijozning haqiqiy ehtiyojini tushunish boʻlishi kerak. Buni toʻgʻri bajorgan startap albatta oʻz yoʻlini topadi. Muvaffaqiyatli startaplar bozorga olib chiqish koʻnikmalarini oʻrgatadi.

Natijada soʻnggi yillarda mamlakatda yuzlab startaplar paydo boʻldi. Ularning aksariyati axborot texnologiyalari, onlayn xizmatlar, elektron savdo, tibbiyot va taʼlim yoʻnalishlarida ishlamoqda. Abdulaziz Suyarovga koʻra, endilikda startap gʻoyasiga Oʻzbekistonda faqat texnik loyiha emas, balki iqtisodiy oʻsishning yangi yoʻnalishi sifatida qaralayapti.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

MAQSADLARI BIR JAHON

MIRJAHON

– 7-sinfdan kimyo va biologiyaga qiziqaman. Kelajakda jarroh boʻlish maqsadida Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda tahsil olyapman, – deydi u.

Mirjahon 8-sinfidagi ixtisoslashtirilgan maktabga imtihon asosida qabul qilingan.

Kimyo faniga qiziqishi tufayli olimpiadalar-ga tayyorlov guruhi-da oʻqiy boshlagan. 9-sinfda asosiy fan olimpiadasining shahar bosqichida 2-oʻrinni, STEM fanlari boʻyicha olimpiadaning agentlik bosqichida 1-oʻrinni egallagan.

– Shundan keyin oʻzimga ishonchim ortdi va xalqaro olimpiadalarga tayyorgarlikni boshladim, – deydi qahramonimiz. – 10-sinfda Xitoyning Shenchjen shahrida kimyodan 58-xalqaro Mendeleyev va Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyodda 56-xalqaro kimyo olimpiadasida bronza medalini qoʻlga kiritdim. Bir yildan keyin bundan ham yaxshi natija koʻrsatishni maqsad qildim. Brazilyada boʻlib oʻtgan 59-xalqaro Mendeleyev olimpiadasida ham, Birlashgan Arab Amirliklarida oʻtkazilgan 57-xalqaro

kimyo olimpiadasida ham oltin medalni qoʻlga kiritdim. Bundan tashqari, yurtimizda oʻtkazilgan Ikkinchi Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro olimpiadasi ham men uchun juda omadli boʻldi. Bu yil 30-iyunda hurmatli Prezidentimiz

“Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti bilan taqdirladi.

Mirjahon Prezident qoʻlidan mukofotni qabul qilib olishi yilning eng katta muvaffaqiyati boʻlganini taʼkidlaydi:

– Prezidentimizning uchrashuvdagi nutqlari kelgusi rejalarimni aniqlab olishga va astoydil intilishga undadi.

Mirjahonning yutuqlarida ustozlari koʻmagi, ota-onasi va yaqinlarining ishonchi katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, ishonch katta muvaffaqiyatlar sari yetaklaydi.

– Kimyo fani zerikarli, oddiy reaksiya va murakkab masalalardan iboratdek tuyuladi, ammo men uchun kimyo dunyo sirlarining kalitidir. Uni chuqur oʻrganishni boshlaganda fan haqidagi fikrlar keskin oʻzgardi, – deydi u.

Sarvinoz YALGASHOVA, “Yoshlar ovozi” muxbiri



KEGAY, TOʻGʻIN VA GUPCHAK

TIL BILIMI

Arava (aroba) – asli arabcha soʻz boʻlsa-da, uning qismlari sof oʻzbekcha ataladi.

Shoti. Oʻzbek tilining etimologik lugʻatida aytilishicha, u shati – shati – shoti tarzida tadjiriy yoʻlni bosib oʻtgan. Ikki xil maʼnosi bor: 1. Narvon. 2. Shoti deganda aravaning ot yoki eshak qoʻshiladigan, uning asosini tashkil etuvchi, bir necha yeridan koʻndalangiga taxta bilan biriktirilgan ikki yon yogʻochi ham tushuniladi.

Oʻq ham sof oʻzbekcha soʻz. Izohli lugʻatda “ikki uchiga gʻildirak oʻrnatiladigan, yogʻoch yoki metalдан yasalgan gʻoʻla” deb izohlangan. Gʻildirak nimaligini hamma biladi. Qismlari-chi?

Gupchak – gʻildirakning markazidagi oʻq oʻrnatiladigan teshigi boʻlgan oʻrta qismi.

Kegay – gʻildirakning toʻgʻini, yaʼni tashqi gardishi (aylanasi) bilan gupchagini qoʻshib tutib turuvchi tayoqchalar. Yogʻoch gʻildirakning kegayi yogʻochdan, temir gʻildirakniki temirdan yasaladi.

Biz valasapid chinalagi (gʻildiragi)ning simdan boʻlgan kegayini sip derdik. Keyinchalik bildimki, u oʻrischa “spisa”ning oʻzbekcha aytilishi ekan.

Elmurod NISHONOV

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
Oʻzbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir oʻrinbosari:
Shahobiddin LUQMON

Masʼul muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta roʻyxatdan oʻtgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh koʻchasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxona manzili: Buyuk Turan koʻchasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1108, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6